O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASH VOSITASI

Aminova Nasiba Davlatboy qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, tayanch doktorant.
e-mail: aminovanasiba396@gmail.com

Annotatsiya.

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining emotsional intellektini baholash vositasining tuzilishi va uni ishlab chiqishda asos qilib olingan pedagogik tamoyillar yoritilgan. Vosita emotsional intellektni rivojlantirish modelining bilim, emotsional-amaliy, refleksiv va kasbiy-identifikatsion mezonlariga tayanadi. U 45 banddan iborat so‘rovnoma va pedagogik amaliyot jarayonida to‘ldiriladigan 15 bandli kuzatuv varaqasidan tashkil topgan. So‘rovnomada o‘zini baholash qismi bilim testi va pedagogik vaziyatlarga oid topshiriqlar bilan to‘ldirilgan. O‘zini baholash qismi D. V. Lyusinning EmIn so‘rovnomasiga tayangan holda boshlang‘ich ta’lim sharoitiga moslashtirilgan. Natijalar har bir mezon bo‘yicha foizlarda va uch darajada ifodalanadi. Vositaning ishonchliligi tajriba-sinov ishlarining birinchi o‘lchov bosqichida tekshiriladi.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, baholash vositasi, baholash mezonlari, pedagogik vaziyat, kuzatuv varaqasi, pedagogik amaliyot.

ИНСТРУМЕНТ ОЦЕНКИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ

Аминова Насиба Давлатбой кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, базовый докторант.

Аннотация.

В статье обоснованы структура инструмента оценки эмоционального интеллекта будущих учителей начальных классов и педагогические принципы, положенные в основу его разработки. Инструмент базируется на когнитивном, эмоционально-практическом, рефлексивном и профессионально-идентификационном критериях модели развития эмоционального интеллекта. Он состоит из опросника, включающего 45 пунктов, и листа наблюдения из 15 пунктов, заполняемого в процессе педагогической практики. Раздел самооценки в опроснике дополнен тестом знаний и заданиями, основанными на педагогических ситуациях. Часть, посвящённая самооценке, адаптирована к условиям начального образования на основе опросника эмоционального интеллекта «ЭмИн» Д. В. Люсина. Результаты по каждому критерию выражаются в процентах и распределяются по трём уровням. Надёжность инструмента проверяется на этапе первого измерения опытно-экспериментальной работы.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, будущий учитель начальных классов, инструмент оценивания, критерии оценивания, педагогическая ситуация, лист наблюдения, педагогическая практика.

A CRITERION-BASED INSTRUMENT FOR ASSESSING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PRE-SERVICE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Aminova Nasiba Davlatboy qizi

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, PhD Student.

Abstract.

This article substantiates the structure of an assessment instrument for evaluating the emotional intelligence of future primary school teachers and the pedagogical principles underlying its development. The instrument is based on the cognitive,

emotional-practical, reflective, and professional-identification criteria of the emotional intelligence development model. It consists of a 45-item questionnaire and a 15-item observation sheet completed during teaching practice. The self-assessment section of the questionnaire is supplemented with a knowledge test and tasks based on pedagogical situations. The self-assessment component was adapted to the context of primary education based on D. V. Lyusin's EmIn Emotional Intelligence Questionnaire. The results for each criterion are expressed as percentages and classified into three levels. The reliability of the instrument is assessed during the first measurement stage of the experimental study.

Keywords: emotional intelligence, future primary school teacher, assessment instrument, assessment criteria, pedagogical situation, observation sheet, teaching practice.

Kirish. Boʻlajak oʻqituvchida emotsional intellektni rivojlantirish ishining samarasi uning natijasini aniqlash imkoniyatiga bogʻliq. Talabada qaysi jihat oʻsgani va qaysi biri qoʻshimcha e'tibor talab qilishi ma'lum boʻlmasa, mashgʻulot mazmunini toʻgʻri belgilash qiyinlashadi. Shu sababli rivojlantirish dasturi baholash vositasisiz toʻliq boʻlmaydi. Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi uchun bu masala alohida ahamiyatga ega, chunki uning emotsional intellekti darsdagi aniq pedagogik vaziyatlarda namoyon boʻladi.

Mavjud baholash metodikalari bu talabga toʻliq javob bermaydi. Muallifning oldingi tadqiqotida emotsional intellektni baholash metodikalari qobiliyatga, oʻzini baholashga va aralash modelga asoslangan yondashuvlarga ajratilgan hamda ularning pedagogik faoliyatga toʻliq moslashmagani koʻrsatilgan [1]. G. Monroy Korrea va A. Mansanal Martinesning tizimli sharhida ham baholash masalasi ochiq qolgani koʻrinadi. Ular tahlil qilgan tadqiqotlarning koʻpchiligida talabalar oʻz sifatlarini oʻzlari baholagan, umumiy qabul qilingan oʻlchov mezoni esa yoʻq [2]. Oʻzbekistonda D. V. Lyusin yaratgan EmIn soʻrovnomasi [3] qoʻllanmoqda, K. T. Olimov va hamkasblari undan Toshkentdagi boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini oʻrganishda foydalangan [4]. Biroq bu soʻrovnoma umumiy maqsadga moʻljallangan va oʻqituvchining sinfdagi kasbiy vaziyatlariga yoʻnaltirilmagan [3].

Tadqiqot doirasida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida emotsional intellektni rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan. Modelda natija toʻrt mezon boʻyicha aniqlanadi: bilim, emotsional-amaliy, refleksiv va kasbiy-identifikatsion. Bu mezonlarni oʻlchash uchun oʻzini baholash, bilim testi, pedagogik vaziyatlar va kuzatuvni birlashtirgan vosita zarur boʻladi. Emotsional intellektni baholash masalasi oʻrganilgan boʻlsa-da, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining kasbiy vaziyatlarini hisobga oluvchi vosita yanada takomillashtirishni taqozo qiladi. Maqolaning maqsadi mazkur mezonlarga tayangan baholash vositasining tuzilishini va uni ishlab chiqishda tayanilgan pedagogik tamoyillarni asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Baholash vositasining nazariy asosi sifatida D. V. Lyusin talqini olindi. Uning qarashiga koʻra, emotsional intellekt shaxsning his-tuygʻularni anglay olishi va ularni boshqara olishida namoyon boʻladi. Olim yaratgan EmIn soʻrovnomasi bu qobiliyatni ikki yoʻnalishda baholaydi: shaxsning oʻz his-tuygʻulari va boshqa odamlarning his-tuygʻulari [3]. Boshlangʻich sinf oʻqituvchisining kasbiy faoliyatida bu ikki yoʻnalish birga kechadi. Darsda oʻqituvchi oʻz hayajonini jilovlashi bilan birga bolalar kayfiyatidagi oʻzgarishni ham sezib turishi kerak. Shu sababli taklif etilayotgan soʻrovnomaning oʻzini baholashga oid qismi EmIn tuzilishiga tayanadi.

Boʻlajak oʻqituvchilar bilan olib borilgan tadqiqotlarda natijani bir necha manbadan olish tajribasi mavjud. R. Gilar-Korbi va hamkasblari boshlangʻich ta'lim yoʻnalishidagi 192 nafar talabaning emotsional intellektini ikki xil vosita bilan oʻlchagan. Ular oʻzini baholashga asoslangan R. Bar-On soʻrovnomasining qisqa shaklini va topshiriq bajarishga asoslangan Mayer–Salovey–Karuzo testini (MSCEIT) birga qoʻllagan [5]. M. Oʻzdemir Jihan va M. Dilekmen esa Bar-On soʻrovnomasining turkcha shaklini suhbat va talabalar kundaliklari bilan toʻldirgan. Ular soʻrovnoma ishonchliligini dastlabki va yakuniy oʻlchovda alohida hisoblagan [6]. Bu tajriba bitta oʻlchov turi talabaning holatini toʻliq koʻrsatmasligi mumkinligini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlarda qoʻllangan soʻrovnoma va testlar umumiy maqsadli vositalardir. Ularda talabaning boshlangʻich sinfdagi pedagogik vaziyatda qanday yoʻl tutishi alohida baholanmagan. Talabaning pedagogik amaliyotdagi xatti-harakatini tashqi kuzatuvchi bahosi bilan solishtirish ham koʻzda tutilmagan. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisi uchun esa oʻzini baholash, bilim, pedagogik vaziyat va kuzatuvni bitta tuzilmada birlashtirgan vosita kerak boʻladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Vosita modelning toʻrt mezoniga tayangan holda tuzildi va unda toʻrt tamoyilga amal qilindi. Birinchisi kasbiy vaziyatga yoʻnaltirilganlikdir: bandlar talabaning umumiy hayotiga emas, boshlangʻich sinfdagi voqealarga bogʻlandi. Ikkinchisi natijani turli manbalardan olishdir, ya'ni oʻzini baholash bilim testi, vaziyatli topshiriq va tashqi kuzatuv bilan toʻldirildi. Uchinchisi anonimlikdir: talaba ismini yozmaydi va natija oʻquv baholariga qoʻshilmaydi. Toʻrtinchisi takroriy oʻlchashdir: bir xil vosita tajriba boshida, 6-hafta va 12-hafta oxirida qoʻllanadi. Oʻzini baholash qismida D. V. Lyusin talqini tanlandi, chunki EmIn soʻrovnomasi MDH sharoitida yaratilgan va Oʻzbekistonda boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini

o‘rganishda qo‘llangan [3; 4].

So‘rovnoma 45 banddan iborat va besh qismga bo‘lingan. A qismidagi 20 band EmIn tuzilishiga tayanadi, biroq ularning mazmuni boshlang‘ich sinf sharoitiga moslashtirilgan. Masalan, bandlarda o‘quvchining jimib qolishi, bolalar o‘rtasidagi janjal yoki ota-onaning xavotiri kabi holatlar tasvirlanadi. B qismi 8 ta test savolidan iborat bo‘lib, mashg‘ulotlarda o‘rganiladigan usullarni bilishni tekshiradi. C qismida 5 ta pedagogik vaziyat berilgan, har biriga to‘rt javob varianti mavjud. D qismidagi 6 band kasbiy-identifikatsion mezonni, E qismidagi 6 band esa refleksiv mezonni aniqlaydi. A, D va E qismlarida to‘rt bosqichli shkala qo‘llanadi (0–3 ball), 11 ta band teskari ballanadi. B qismida to‘g‘ri javob 1 ball oladi. C qismida har bir variant pedagogik maqsadga muvofiqligiga qarab 0 dan 3 gacha ball bilan baholanadi. Mezon bali uning eng yuqori qiymatiga nisbatan foizda ifodalanadi. Foiz 33 gacha bo‘lsa, past, 34–66 oralig‘ida o‘rta, 67 va undan yuqori bo‘lsa, yuqori daraja belgilanadi. Mezonlar turli jihatlarni ifodalagani uchun umumiy ball hisoblanmaydi.

So‘rovnomaga qo‘shimcha ravishda 15 bandli kuzatuv varaqasi tuzildi. Uni maktabdagi sinf o‘qituvchisi yoki metodist pedagogik amaliyotning 1-, 6- va 12-haftasi oxirida to‘ldiradi. Har bir xatti-harakat to‘rt bosqichli chastota shkalasida baholanadi, vaziyat yuzaga kelmagan hollar uchun alohida belgi ko‘zda tutilgan. Kuzatuv natijasi so‘rovnoma ballariga qo‘shilmaydi va o‘zini baholash natijasini tekshirish uchun alohida tahlil qilinadi. So‘rovnoma onlayn platforma orqali shaxsiy kod bilan to‘ldiriladi va taxminan 25 daqiqa vaqt oladi. Vositani tajriba-sinov ishida 155 nafar talabada qo‘llash rejalashtirilgan. Uning ichki ishonchliligi dastlabki o‘lchov ma’lumotlari asosida har bir mezon uchun alohida hisoblanadi: emotsional-amaliy, refleksiv va kasbiy-identifikatsion mezonlar uchun Kronbax alfasi, bilim mezoni uchun esa Kuder–Richardson koeffitsiyenti (KR-20) qo‘llanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqilgan vositada modelning har bir mezoni aniq bandlar va ma’lumot turi bilan bog‘landi (1-jadval).

1-jadval

Baholash mezonlari va so‘rovnoma bandlarining mosligi

Mezon	Bandlar	Ma’lumot turi	Eng yuqori ball
Bilim	21–28 (B qismi)	bilim testi	8
Emotsional-amaliy	1–20 (A qismi), 29–33 (C qismi)	o‘zini baholash, pedagogik vaziyat	75
Kasbiy-identifikatsion	34–39 (D qismi)	o‘zini baholash	18
Refleksiv	40–45 (E qismi)	o‘zini baholash	18

Bandlarning katta qismi emotsional-amaliy mezonga to‘g‘ri keladi. Bu mezon ikki yo‘l bilan aniqlanadi. Talaba A qismida o‘zini baholaydi, C qismida esa aniq pedagogik vaziyatda yechim tanlaydi. Ikki natija bir-biridan keskin farq qilsa, bu talabaning o‘z imkoniyatini qanchalik to‘g‘ri baholashini aniqlashga yordam berishi mumkin. Bilim mezoni esa faqat test orqali o‘lchanadi, chunki u mashg‘ulot mazmunini o‘zlashtirish darajasini ko‘rsatadi. Refleksiv va kasbiy-identifikatsion mezonlar talabaning o‘z faoliyatiga munosabatini aks ettiradi. Kuzatuv varaqasi o‘zini baholash natijalari uchun tashqi dalil vazifasini bajaradi. Natija mezonlar kesimida chiqqani uchun mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi qaysi yo‘nalishga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligini aniqlashi mumkin.

Taklif etilayotgan vositaning avvalgi tadqiqotlardagi vositalardan farqi quyidagicha. R. Gilar-Korbi va hamkasblari ikki xil vositadan foydalangan, biroq ularning ikkalasi ham umumiy maqsadli bo‘lgan [5]. M. O‘zdemir Jihan va M. Dilekmen so‘rovnoma natijasini suhbat va kundalik orqali boyitgan, lekin tashqi kuzatuvchi bahosi olinmagan [6]. Mazkur vositada esa barcha qismlar boshlang‘ich sinf sharoitiga bog‘langan va sinf o‘qituvchisi yoki metodistning kuzatuvi bilan to‘ldirilgan. G. Monroy Korrea va A. Mansanal Martines bo‘lajak o‘qituvchilar dasturlarida yagona baholash mezoni yo‘qligini ta’kidlagan [2]. Taklif etilgan yondashuv bu masalaga qisman javob berishi mumkin, chunki to‘rt mezon va uch daraja har uch o‘lchovda bir xil qo‘llanadi va natijalarni solishtirish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining emotsional intellektini to‘rt mezon bo‘yicha baholashga mo‘ljallangan vosita ishlab chiqildi. Vosita 45 bandli so‘rovnoma va 15 bandli kuzatuv varaqasidan iborat. Unda bandlar boshlang‘ich sinf vaziyatlariga bog‘langan, o‘zini baholash esa bilim testi, pedagogik vaziyat va tashqi kuzatuv bilan to‘ldirilgan. Natija mezonlar kesimida chiqqani sababli vosita mashg‘ulot mazmunini talabalar ehtiyojiga moslashtirishda qo‘l kelishi mumkin. Shu bilan birga, vositaning ishonchliligi va validligi hali empirik jihatdan tekshirilmagan. Bilim mezoni sakkiz band bilan o‘lchangani uchun uning ishonchliligi pastroq chiqishi ehtimoli bor. So‘rovnomaning katta qismi o‘zini baholashga tayangani sababli talaba o‘zini yaxshiroq ko‘rsatishga urinishi ham mumkin. Keyingi bosqichda tajriba-sinov ishining birinchi o‘lchovida vositaning ichki ishonchliligi hisoblanadi, bandlar mazmunini esa mutaxassislar bahosi orqali tekshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aminova N. D. Boʻlajak boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilarida emotsional intellektni baholash metodikalarining ilmiy tahlili // *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar.* – 2026. – № 3 (4). – B. 515–519.
2. Monroy Correa G. M., Manzanal Martínez A. I. Intervention Programmes on Socio-Emotional Competencies in Pre-Service Teachers: A Systematic Review // *Education Sciences.* – 2025. – Vol. 15, No. 12. – Article 1588. – DOI: 10.3390/educsci15121588
3. Люсин Д. В. Новая методика для измерения эмоционального интеллекта: опросник ЭмИн // *Психологическая диагностика.* – 2006. – № 4. – С. 3–22.
4. Олимов К. Т., Безгодова С. А., Олимова А. К. Эмоциональная компетентность педагога как предиктор субъективного благополучия младших школьников // *Перспективы науки и образования.* – 2025. – № 4. – DOI: 10.32744/pse.2025.4.10
5. Gilar-Corbi R., Pozo-Rico T., Pertegal-Felices M. L., Sanchez B. Emotional Intelligence Training Intervention Among Trainee Teachers: A Quasi-Experimental Study // *Psicologia: Reflexão e Crítica.* – 2018. – Vol. 31, No. 1. – Article 33. – DOI: 10.1186/s41155-018-0112-1
6. Özdemir Cihan M., Dilekmen M. Emotional Intelligence Training for Pre-Service Primary School Teachers: A Mixed Methods Research // *Frontiers in Psychology.* – 2024. – Vol. 15. – Article 1326082. – DOI: 10.3389/fpsyg.2024.1326082